

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.76.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

OLIMJONOVA ODINA HASANXON QIZI

**STRUKTURAVIY BOSHQARUV ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM
JARAYONLARI SAMARADORLIGINI TA'MINLASH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.07 – Ta'limda menejment

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Olimjonova Odina Hasanxon qizi

Strukturaviy boshqaruv asosida maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini
ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish..... 3

Олимжонова Одина Хасанхон кизи

Совершенствование механизмов обеспечения эффективности процессов
дошкольного образования на основе структурного управления 25

Olimjonova Odina Hasanxon kizi

Improving mechanisms for ensuring the effectiveness of preschool educational
processes based on structural management..... 47

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works 52

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.76.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

OLIMJONOVA ODINA HASANXON QIZI

**STRUKTURAVIY BOSHQARUV ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM
JARAYONLARI SAMARADORLIGINI TA'MINLASH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.07 – Ta'limda menejment

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERAT**

Namangan – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped5335. raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Namangan davlat universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.mdomoi.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Turg'unov Sobitxon Toshpo'latovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Egamberdiyeva Turg'unoy Axmadjonovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Abdusamatova Nargiza Jamolidinovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.2021.Ped.76.02 raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil « 23 » iyun soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshox ko'chasi 161-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01; faks: (+99869) 228-85-01; e-mail: info@namdu.uz.)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (15780 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshox ko'chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 9 » 06 kuni tarqatildi.
(2025-yil « 9 » 06 dagi 8 - raqamli reyestr bayonnomasi).



T. Fayzullayev
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash raisi, siyosiy
fanlari doktori, professor

Sh.K.Xo'jamberdiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika
fanlari doktori (DSc), professor

T.A.Egamberdiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limi va rivojlanishi uchun maqbul sharoitlarni yaratish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar maktabgacha ta'limning davlat va nodavlat sektorini rivojlantirish, maktabgacha ta'limni samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etishni taqozo etmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanish huquqlarini ta'minlash, bolalikdanoq har bir bolaning rivojlanish ehtiyojlari asosida muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va uni rivojlantirish sohalarni aniqlash, zamonaviy dasturlar va texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish dolzarb vazifa etib belgilanib, strukturaviy boshqarish negizida maktabgacha ta'lim xizmatlari sifatini oshirish, uning samaradorligini ta'minlash hamda axborot-tahliliy ishlarni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Dunyoda bolalarning erta yoshdan rivojlanishi va ta'lim olishi imkoniyatlarini kengaytirish, maktabgacha ta'limning muqobil shakllarini ishlab chiqish, ta'lim tashkilotlarida o'quv muhitini yaxshilash, ta'lim sifatini tizimli baholash vositalari va mexanizmlaridan samarali foydalanish jarayonlarini zamonaviy boshqarish tamoyillari asosida tashkil etish masalalariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini strukturaviy boshqarish tizimini takomillashtirish orqali maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlash imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilanib, ta'lim-tarbiya jarayonida ilm-fan yutuqlari, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasi, pedagogik hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy shakllari va usullarini joriy etishning me'yoriy-huquqiy asoslari yaratildi. Maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini nazorat qilishning samarali usullaridan foydalanish ustuvor vazifalar etib belgilandi. O'zbekiston Respublikasining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da "maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish"¹ maqsadida maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish zarurligi ta'kidlandi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda O'RQ-595-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 30-sentyabrda PF-5198-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.

8-maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2017-yil 9-sentyabrdagi RQ-3261-son “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-son “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 22-dekabrda 802-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda zamonaviy ta’lim menjmenti nazariyasi va amaliyotining dolzarb muammolari S.G‘ulomov, R.Ahliddinov, R.Djurayev, S.Turg‘unov, U.Inoyatov, H.Ahmadxo‘jayev, G‘Qosimov, Sh.Qurbonov, R.Valijonov, A.Xo‘jayev, N.Fayzullayeva, A.To‘xtaboyev va boshqalar tomonidan ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan.

Maktabgacha ta’lim tizimida ma’naviy barkamol va intellektual jihatdan rivojlangan shaxsni tarbiyalashda ta’lim va tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari, usullari va vositalarini tatbiq etish muammolari F.Qodirova, D.Abdurahimova, Sh.Xujamberdiyeva, G.Ibroximova, T.Xurvaliyeva, X.Najmiddinova, G.Berdaliyeva, D.Babayeva, G.Mardonova, M.Umarova, M.Abdullayeva, Z.Azizova, N.Abdusamatova, D.Toshpo‘latovalar tomonidan tadqiq etilgan.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini samarali boshqarish va ta’lim sifatini takomillashtirish muammolari G.Nazirova, G.Omanova, M.Hamdama, Sh.Qosimova, G.Rizayeva, K.Buriyev, D.Toshpo‘latovalar tomonidan o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlari L.Tarita, K.Koryakin, R.Xuriyev, L.Sergeyeva, V.Sergeyev, S.Bibik, S.Belyakov, A.Grudzinskiy, L.Ogoleva, A.Panchenko, V.Danilin, xorijiy olimlar M.Glozier, R.Birnbaum, R.Barnett, S.Collini, S.Marginson, M.Krou tomonidan ta’lim muassasalarida ta’lim menejmenti samaradorligini takomillashtirish, ta’lim sifatini boshqarish va ta’lim natijalarini nazorat qilish va baholash tizimlarining pedagogik mexanizmlari yoritib berilgan.

Ta’lim muassasalarini boshqarish va ta’lim jarayonlari samaradorligini oshirishga doir ko‘plab ilmiy ishlar olib borilgan bo‘lsa-da, maktabgacha ta’lim tashkilotida strukturaviy boshqarishga integratsion yondashuv, strukturaviy boshqarish ta’lim jarayonlari samaradorligini ta’minlashning yetakchi omili ekanligi alohida tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilmaganligi bois strukturaviy boshqaruv asosida maktabgacha ta’lim jarayonlari samaradorligini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqot olib borishni taqozo etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 561624-EPP. "O'zbekiston oliy ta'limi jarayonini modernizatsiyalash va xalqarolashuvini rivojlantirish" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi strukturaviy boshqaruv asosida maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga mos holda maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlashda strategik boshqaruvning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

maktabgacha ta'lim menejmentida strukturaviy boshqaruvning mohiyati va uning tashkiliy turlarini tahlil qilish;

strukturaviy boshqaruv asosida maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlash mexanizmlarining takomillashtirilgan modelini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

strukturaviy boshqaruv asosida maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlashning innovatsion texnologiyalarini asoslash va tajriba-sinovdan o'tkazish.

Tadqiqotning obyekti sifatida strukturaviy boshqaruv asosida maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlash jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Namangan viloyati MTTLari, Farg'ona viloyati MTTLari rahbar-xodimlari, hamda MTT direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tinglovchilarining 310 nafari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini strukturaviy boshqaruv asosida maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlash jarayoni mazmuni, shakl, usullari va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, suhbat, so'rovnoma, ekspert baholash, nazariy tahlil, faoliyat natijalarini o'rganish, savol-javob, umumlashtirish, materiallarga matematik va statistik ishlov berish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlash mexanizmlari maktabgacha ta'limni rivojlantirishning konseptual asoslariga muvofiq maktabgacha ta'lim tashkilotlarida strukturaviy boshqarish tizimi komponentlarini ko'rib chiqish, strukturaviy boshqarishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlashda strukturaviy boshqaruvning pedagogik imkoniyatlari strukturaviy boshqaruvning tashkiliy (chiziqli; chiziqli-shtabli; funksional; chiziqli-funksional va dasturli-maqsadli) turlarining uzviy aloqadorligini ta'minlash, strukturaviy boshqaruvda tizimli, vaziyatli, funksional yondashish strategiyalarini qo'llash orqali aniqlashtirilgan;

maqsadli, mazmunli va natijaviy bloklar tarkibida ichki funksional bo'linmalar integratsiyasi, resurslardan samarali foydalanish, kadrlar salohiyati, innovasion ta'lim muhiti, ta'lim sifati va tarbiyalanuvchilarning rivojlanish ko'rsatkichlarini tizimli tashhislashni yo'lga qo'yish orqali strukturaviy boshqaruv asosida

maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlash modeli takomillashtirilgan;

maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligi monitoringini amalga oshirishning diagnostik texnologiyalari (nazorat, ekspert baholash, o'zini-o'zi baholash) asosida strukturaviy boshqarish jarayonini prognozlashda boshqaruv sub'yektlari faoliyatlarini muvofiqlashtirish tizimini ishlab chiqish, ta'lim sub'yektlari faoliyatini strategik va taktik rejalashtirish, uning samaradorligiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni bartaraf etish yo'llarini tanlash mexanizmlariga ustuvorlik berish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

maktabgacha ta'lim menejmentida strukturaviy boshqaruv asosida maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlashning pedagogik imkoniyatlari asoslanib, ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

strukturaviy boshqaruv asosida maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlash mexanizmlarining takomillashtirilgan modeli ishlab chiqilgan;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida strukturaviy boshqaruvning tashkiliy turlari integratsiyasini ta'minlash texnologiyalari ishlab chiqilgan;

“Maktabgacha ta'limni boshqarishning ilmiy asoslari” nomli darslik nashr ettirilgan;

strukturaviy boshqaruv asosida maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlash mexanizmlarining takomillashtirishga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi strukturaviy boshqaruv asosida maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish hamda boshqaruv sohasidagi respublikamiz, chet ellik olimlar, shuningdek, amaliyotchi pedagoglarning ishlariga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birlarini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi, tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor, shuningdek, sifat jihatidan ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlili metodlari yordamida qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “strukturaviy boshqaruv” tushunchasining mazmun-mohiyatining ochib berilganligi; strukturaviy boshqaruv asosida maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan muayyan pedagogik tizimning nazariy-metodologik va amaliy-metodik asoslarini boyitishda hamda mazkur jarayonni takomillashtirish modeli, ushbu modelning pedagogik-psixologik asoslari, uni amaliyotda qo'llashning qulay shart-sharoitlari, ishlab chiqilgan ilmiy tavsiyalar va ulardan foydalanish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ulardan maktabgacha ta'lim mazmuni va sifatiga, strukturaviy boshqaruv asosida maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlash mexanizmlaridan maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlari lavozimlarining malaka tavsiflari, yangi avlod darslik, o'quv va metodik qo'llanmalarni yaratishda keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Strukturaviy boshqaruv asosida maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlash mexanizmlari maktabgacha ta'limni rivojlantirishning konseptual asoslariga muvofiq maktabgacha ta'lim tashkilotlarida strukturaviy boshqarish tizimi komponentlarini ko'rib chiqish, strukturaviy boshqarishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashtirish asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar "Maktabgacha ta'limni boshqarishning ilmiy asoslari" darsligi (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 19-iyuldagi 233-son buyrug'i buyrug'i bilan berilgan 233-0323-son guvohnoma) mazmuniga singdirilgan. Natijada strukturaviy boshqaruv asosida maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlashning didaktik ta'minoti takomillashtirilgan;

maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlashda strukturaviy boshqaruvning pedagogik imkoniyatlari strukturaviy boshqaruvning tashkiliy turlarining uzviy aloqadorligini ta'minlash, strukturaviy boshqaruvda tizimli, vaziyatli, funksional yondashish strategiyalarini qo'llash orqali aniqlashtirishga oid taklif va mulohazalardan Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirish kursining elektron platformasini yaratish pre-school-PDP nomli loyiha doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetining 2025-yil 24-yanvardagi №04/11-1607 ma'lumotnomasi). Natijada maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligi monitoringini amalga oshirish imkoniyati yaratilgan;

maqsadli, mazmunli va natijaviy bloklar tarkibida ichki funksional bo'linmalar integratsiyasi, resurslardan samarali foydalanish, kadrlar salohiyati, innovatsion ta'lim muhiti, ta'lim sifati va tarbiyalanuvchilarning rivojlanish ko'rsatkichlarini tizimli tashhislashni yo'lga qo'yish orqali strukturaviy boshqaruv asosida maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalari Namangan, Farg'ona viloyati MTTlar va MTTDMQT va MO institutlarida amaliyotga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 27-martdagi 03-33-908-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tarbiyachi-pedagoglarning innovatsion faoliyatini takomillashtirishga erishilgan;

maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligi monitoringini amalga oshirishning diagnostik texnologiyalari asosida strukturaviy boshqarish jarayonini prognozlashda boshqaruv subyektlari faoliyatlarini muvofiqlashtirish tizimini ishlab chiqish, ta'lim subyektlari faoliyatini strategik va taktik rejalashtirish, uning samaradorligiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni bartaraf etish yo'llarini tanlash mexanizmlariga ustuvorlik berish orqali takomillashtirishga oid takliflar "Maktabgacha ta'limni boshqarishning ilmiy asoslari" darsligi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 27-martdagi 03-33-908-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, maktabgacha ta'lim menejmentida strukturaviy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta darslik, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, asosiy matn 123 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, ilmiy muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari bayon qilingan, obykti va predmeti aniqlangan, fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e‘lon qilinganligi, tadqiqot ishi tuzilishi va hajmiga doir ma‘lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Strukturaviy boshqaruv asosida maktabgacha ta‘lim jarayonlari samaradorligini ta‘minlash mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida strukturaviy boshqaruv asosida maktabgacha ta‘lim jarayonlari samaradorligini ta‘minlashning me‘yoriy-huquqiy asoslari, ta‘lim menejmentida “strukturaviy boshqaruv” tushunchasining mohiyati va tashkiliy turlari xususida so‘z yuritilgan. Shuningdek, strukturaviy boshqaruv asosida maktabgacha ta‘lim jarayonlari samaradorligini ta‘minlash ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida asoslangan, maktabgacha ta‘lim sifati va strukturaviy boshqaruvga nisbatan innovatsion yondashuvlar asoslangan. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti rahbarlari faoliyatida ta‘lim sifati va samaradorligini ta‘minlashning mavjud holati tahlil qilingan.

Maktabgacha ta‘lim sohasidagi mavjud muammolar va kamchiliklarni bartaraf etishning yetakchi omili sifatida maktabgacha ta‘limni strukturaviy boshqarish tizimida islohotlar amalga oshirildi, ya‘ni maktabgacha ta‘lim vazirligi va uning hududiy bo‘linmalari, zamonaviy boshqaruv shakli – Kuzatuv kengashlari tashkil etildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatini, shuningdek, bolaning rivojlanishi va uning umumiy boshlang‘ich ta‘limga tayyorligini kompleks baholashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish, maktabgacha ta‘lim tizimida davlat talablarining monitoringi va ularga rioya etilishining samarali mexanizmlarini yaratishga oid chora-tadbirlar maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini strukturaviy boshqarishga tubdan yangicha yondashuvlarni joriy etishni taqozo etayotganligi muhim vazifalar qatorida ko‘rsatildi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim sifatini boshqarish belgilangan va mo'ljallangan ehtiyojlar zonasida prognoz qilingan rejalashtirilgan natijaga yo'naltirilgan sinergetik jarayondir. Bunday boshqaruvning **strukturaviy** va funksional komponentlari sifatni loyihalashtirish, sifatni shakllantirish tizimini amalga oshirish va sifatni monitoring qilish, ikkita asosiy qiymatga ega: baholash va rahbarning harakatlarini tuzatishning keyingi yo'nalishini belgilaydi. **Struktura** (lot. structure — tuzilish, bog'lanish) 1) muayyan narsalarning tuzilishi, qurilishi, tarkibiy qismlarning o'zaro bog'liqligi; 2) obyektning yaxlitligi va aynan o'zligini anglatadigan, ya'ni tashqi va ichki o'zgarishlarda asosiy xususiyatlarini saqlab qoladigan barqaror aloqalar majmui sanaladi.

Boshqarish strukturasi deganda boshqaruv masalalarini amalga oshiruvchi va funksiyalarni bajaruvchi bir-biri bilan bog'langan turli boshqaruv organlari va bo'g'inlarining majmui tushuniladi. Boshqarishning u yoki bu vazifalarini hal qilish uchun muayyan organlar tuziladi. Boshqarish organlari tizimi, quyi organlarning yuqori organlarga bo'ysunishi va ular o'rtasidagi o'zaro aloqa **boshqarish strukturasi** tushunchasini tashkil qiladi. Bunday struktura odatda "boshqaruv apparat strukturasi" deb yuritiladi. U biron bir boshqaruv organining bo'limlari tarkibini bildiradi. Boshqaruv MTT rahbarining funksiyasini amalga oshiradi, fikrlash va pedagogik jarayonni eng katta natijalarni beradigan joyga yo'naltiradi, ijtimoiy farovonlikka va bolalarni barkamol shaxs sifatida kamol topishiga eng katta hissa qo'shadi. Menejment rahbarlik faoliyat va bilimining o'ziga xos sohasi sifatida o'zining asosiy muammolari, o'ziga xos yondashuvlari va qiyinchiliklariga ega. Menejment faoliyat turi sifatida boshqaruv funksiyalari deb ataladigan bir qator boshqaruv harakatlarini amalga oshirish orqali olib boriladi. Boshqaruv strukturasi bir necha turlarga bo'linadi (*1-rasmga qarang*).



1-rasm. Boshqarish strukturasi turlari


Strukturaviy boshqaruv tuzilmalarining asosiy tashkiliy turlaridan keng tarqalganlari: chiziqli yoki pog'onali, chiziqli-shtabli, funksional, chiziqli-funksional, dasturli-maqсадli turlardir. Bularning har bir tashkiliy tuzilmasida rasmiy va norasmiy aloqalar bo'ladi. Rasmiy aloqalar vertikal aloqalar bo'lib, ular rahbar va bo'ysunuvchilarning turlariga qarab bir-biridan farq qiladi.

Agar, rahbar to'laqonli, quyi pog'ona quyi organ faoliyatiga doir o'zining masalalariga lavozim vazifalariga ko'ra dahldor bo'lsa, u holda bu turdagi aloqa **chiziqli rasmiy aloqa** deb ataladi (MTT direktoriga tegishli boshqaruv aloqalari).

Agar, rahbarlik cheklangan, quyi bo'ysunuvchi, quyi organ faoliyatiga doir o'zining masalalariga dahldor bo'lsa, u holda bu turdagi aloqa **funksional vazifali rasmiy aloqa** deb ataladi (metodist, xo'jalik mudiri yoki tibbiy xodimga tegishli boshqaruv aloqalari).

Tadqiqot ishining "**Strukturaviy boshqaruv asosida maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish tizimi**" nomli ikkinchi bobida maktabgacha ta'lim tashkilotida strukturaviy boshqaruvni tashkil etish imkoniyatlari va mexanizmlari, strukturaviy boshqaruv asosida maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari tadqiq etildi.

MTTning strukturaviy boshqarish organlari o'rtasida vertikal aloqadan tashqari gorizontaal aloqalar ham mavjud bo'lib, ular muvofiqlashtirish, uyg'unlashtirish (integratsiyalash), hamkorlik qilish tarzidagi aloqalarni o'z ichiga oladi.



2-rasm. Chiziqli struktura

(Izoh: A-MTT rahbari; B-metodist: B1-B2-B3-B4-guruh tarbiyachilari; B5-psixolog; B6-defektolog; B7-til o'qituvchisi; B8-musiqqa rahbari; B9-jismoniy tarbiya yo'riqchisi; D-xodimlar; D1-xo'jalik mudiri; D2-tibbiy xodim; D3-texnik xodimlar; E-kengashlar: E1-Kuzatuv kengashi, E2-Pedagogik kengash, E3-Ot-onalar kengashi).

Bugungi kunda MTTlarini bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib strukturaviy boshqarish mutaxassislar tomonidan yuksak mas'uliyat bilan o'zlashtirilishi va amalga oshirilishi talab etilmoqda. MTTning muayyan (davlat MTT, DXSH, oilaviy MTT) shakli, uning faoliyatini boshqarish, ta'lim tashkiloti maqsadlarining muhim holatlarini, funksiyalarini tahlil qilishga asoslanmog'i

lozim. Shu bois, MTTni oqilona boshqarish tizimi uning maktabgacha ta'limga qo'yilayotgan davlat va jamiyat talablariga moslasha olishi mexanizmlarini to'la ishga solish bilan bog'liqdir.

MTTda strukturaviy boshqarishning asosiy funksiyalaridan biri – davlat standarti talablariga rioya etilishini nazorat qilishdan iborat. Davlat standarti talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishning maqsadi – davlat standartida belgilangan talablarni bajarish darajasini aniqlash, zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida ta'lim-tarbiya sifatini ta'minlashdan iborat bo'lib, MTTda ta'lim samaradorligini ta'minlash ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari ijrosi hamda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat o'quv dasturining bajarilishini nazorat qilish orqali amalga oshiriladi.

MTTda boshqarish tizimining strukturasi tarkibiy qismlarini ikki turga ajratish muhim: **bo'linmalar tuzilmasi va jarayonlar tuzilmasi**. Bo'linmalarining tuzilmasi MTTning tuzilishi va funksiyasini ifodalaydi, ya'ni ta'lim tashkilotidagi ta'limiy-tarbiyaviy, tashkiliy-metodik, ma'muriy-xo'jalik ishlari, tibbiy xizmat kabi bo'linmalar muayyan vazifalarni bajaradi.

Jarayonlar tuzilmasi MTTdagi ta'lim va tarbiya jarayonlarini, ularning rejalashtirilishi, o'zaro bog'liqligi va qo'lga kiritilayotgan natijalarni ifodalaydi. Mazkur jarayonlarning har birida barcha bo'linmalar ishtirok etadilar.

Strukturaviy boshqarishning muvaffaqiyati ta'lim tashkilotidagi bir qancha omillarga bog'liq:


- MTTda boshqaruv kadrlari (direktor, metodist, xo'jalik mudiri) ning mustaqil ishlay oladigan xodimlardan iborat bo'lishi;
- bo'linmalar va ularga mas'ullar uchun mustaqil faoliyat yuritish uchun qulay muhit yaratilganligi, biroq bunda ularga aniq chegara qo'yiladi, chunki strukturaviy boshqaruvning haqiqiy dastaklari saqlanib qoladi;
- mo'ljallarni o'rnatish, harakatlarni muvofiqlashtirish va nazorat hamda nazorat uchun rejalashtirish mexanizmlari ishlatiladi.

Strukturaviy boshqarish mexanizmlari – bu ta'lim tashkilotining ijobiy samarali faoliyatini ta'minlash va uning maqsadlariga erishish uchun ishlatiluvchi turli usullar, jarayonlar va tizimlar to'plamidir. Mazkur mexanizmlar asosan, ta'lim tashkilotining ichki boshqaruvini tashkil etish va uning muvaffaqiyatli ishlashini muvofiqlashtirishga qaratilgan.

Strukturaviy boshqaruv asosida maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlash mexanizmlari quyidagilardan iborat:

- MTTda strukturaviy boshqaruvni ta'minlash (vertikal va gorizontaal boshqarish);
- ta'lim va tarbiyaviy jarayonlarni mufavaqqiyatli boshqarish;
- ta'lim resurslarini boshqarish;
- ta'lim jarayonini rejalashtirish va samarali tashkil etish;
- ta'lim sifatini nazorat qilish va baholash;
- ijtimoiy-ma'naviy va psixologik muhitni boshqarish;
- yangiliklar va innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish.

Ushbu bobda strukturaviy boshqaruv asosida maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlash mexanizmlarining takomillashtirilgan modeli ishlab chiqildi (3-rasmga qarang).



3-rasm. Strukturaviy boshqaruv asosida maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlash mexanizmlarining takomillashtirilgan modeli

Modelda strukturaviy boshqarishning uch (strategik, taktik va operativ boshqarish) darajasi ko'rsatib o'tildi:

Tashkilotning bosh vazifasi (missiyasi) strategik boshqarishning jarayonlaridan biri, u uchta kichik jarayonlardan tashkil topgan, har biri esa muhim mas'uliyatli ishdir. Birinchi kichik jarayon tashkilotning bosh vazifasini aniqlashda, ikkinchisi uzoq muddatli maqsadlarni aniqlashda va nihoyat, qisqa muddatli maqsadlarni aniqlashda ifodalanadi.

MTT direktori strategik boshqaruvga javobgar shaxs hisoblanadi, shuning uchun u MTTning barcha yo'nalishlarini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadigan strategik qarorlarni qabul qiladi. Strategik boshqaruvning ahamiyati shundaki, u orqali MTTning asosiy missiyasi va unga erishish uchun aniq yo'nalishlar belgilanadi, maktabgacha ta'limning o'zgaruvchan muhitida eng samarali strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi, MTTning raqobatbardoshligi ta'minlanadi hamda mavjud ta'lim resurslaridan samarali foydalanish yo'lga qo'yiladi.

Taktik boshqaruv — bu MTTning kutilayotgan maqsadlariga erishish uchun resurslarni samarali taqsimlash va muammolarni yechishga qaratilgan boshqaruv darajasidir. Bu boshqaruv strategik boshqaruv va operatsion boshqaruv o'rtasidagi o'ringa ega bo'lib, asosan o'rta muddatli rejalar va vazifalarga qaratilgan.

Operativ boshqaruv — MTTning kundalik faoliyatini nazorat qilish, mavjud jarayonlarni amalga oshirish va ularning samaradorligini ta'minlashga qaratilgan boshqaruv darajasi bo'lib, u strategik va taktik boshqaruvda belgilangan maqsadlar va vazifalarni tezkorlik bilan amalga oshirishni ta'minlaydi.


Shuningdek, MTTni boshqarishda ta'lim-tarbiya, tashkiliy-pedagogik jarayon, ma'muriy-xo'jalik ishlari, xodimlarning funksional vazifalari nuqtai nazaridan gorizontaal va vertikal boshqaruv usulidan foydalaniladi.

Gorizontaal boshqaruv – bu MTTdagi turli bo'limlar, guruhlar yoki xodimlar o'rtasida hamkorlik va muvofiqlashtirishni ta'minlashga qaratilgan boshqaruv usulidir. Uning asosiy maqsadi turli funksional bo'linmalar o'rtasidagi o'zaro aloqani kuchaytirish, samaradorlikni oshirish va umumiy maqsadlarga erishishdir.

Gorizontaal boshqaruvda qaror qabul qilish vertikal darajada emas, balki bir darajadagi bo'linmalar (ta'lim-tarbiyaviy jarayonga oid yoki tibbiy xizmatga oid...) yoki xodimlar (metodist va tarbiyachilar, defektolog va psixolog, texnik xodimlar va h.k.) o'rtasida taqsimlanadi. Gorizontaal boshqaruv hamkorlikka yo'naltirilgan bo'ladi, ya'ni turli bo'limlar va guruhlar o'rtasida axborot almashinuvi, maslahatlashuv va hamkorlik ta'minlanadi, birgalikda ishlashga mos bo'lgan ko'p ixtisosli guruhlar yoki xodimlarni shakllantirishga imkoniyat yaratiladi.

Gorizontaal boshqaruvning o'ziga xosligi shundaki, bunda qarorlar umumiy kelishuv asosida qabul qilinadi, har bir yo'nalishda (ta'lim va tarbiya, salomatlikni saqlash, jismoniy tarbiya, sog'lom ovqatlantirish...) xodimlar o'zlariga tegishli masalalarga ta'sir ko'rsatadilar.

Biroq gorizontaal boshqaruvning afzalliklari va kamchiliklari (noqulayliklari) ham mavjud (*4-rasmga qarang*).



4-rasm. Gorizontaal boshqarishning afzalliklari va kamchiliklari

Modelda strukturaviy boshqarishda quyidagi tamoyillariga e'tibor qaratish ko'zda tutilgan:

1. Boshqaruvning maqsadlarga yo'naltirilganligi tamoyili.
2. Boshqaruvda tizimlilik tamoyili.
3. Boshqaruvning uzviyligi va uzluksizligi.
4. Moslashuvchanlik tamoyili.
5. Strategik nazorat va baholash tamoyili.

Strukturaviy boshqaruv modeli zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va pedagogik metodlarni qo'llashni osonlashtiradi, bu esa ta'lim jarayonini samaradorligini oshiradi. Ushbu modelda MTTdagi ta'lim-tarbiya jarayonida har bir bolaning shaxsiy ehtiyojlari va individual qobiliyatlari va rivojlanish ehtiyojlarini hisobga olishga ko'proq e'tibor qaratiladi. Bu esa ularning ijodiy va intellektual salohiyatini to'liq rivojlantirishga yordam beradi.

MTTda o'tkaziladigan pedagogik kengash yig'ilishlarida strukturaviy boshqarish asosida MTT faoliyatini takomillashtirish, tarbiya va ta'lim jarayonlarini samarali tashkil etish, pedagoglarning malakasini oshirish hamda tarbiyalanuvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi yutuqlari va muammolarini muhokama qilish muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda ta'lim samaradorligini ta'minlashning turli yo'nalishlari bo'yicha kun tartibida dolzarb masalalarni muhokama qilish, Kuzatuv kengashning har chorakda o'tkaziladigan yig'ilishlarida ham MTTda ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha mavjud muammolar, kamchiliklar va ularning yechimlari yuzasidan MTT rahbarining hisobotlarini tinglash muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzatuv kengashi tarbiyalanuvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda ularni yaxshilash bo'yicha ota-onalar va jamoatchilik tashkilotlari va homiylar bilan hamkorlik qilishda amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha masalalarni ko'rib chiqadi.

Model doirasida jarayonlarning monitoringi va natijalarni baholashning aniq mezonlari ishlab chiqiladi. Bu boshqaruv qarorlarini qabul qilishda tezkor va maqsadli yondashuvni ta'minlaydi. Strukturaviy boshqaruv modeli o'zgaruvchan tashqi va ichki sharoitlarga tez moslashishga qodir. Bu innovatsion g'oyalarni tezkor joriy qilish va ta'lim jarayonini doimiy takomillashtirish imkonini beradi. Ota-onalar, pedagoglar va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasida hamkorlikni faollashtiradi, bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bu afzalliklar maktabgacha ta'limda nafaqat samaradorlikni oshirishga, balki sifatli ta'lim muhitini yaratishga ham xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, strukturaviy boshqaruv asosida maktabgacha ta'lim jarayonlarini samarali tashkil etish bolalarning har tomonlama rivojlanishiga sharoit yaratadi, ta'lim-tarbiya jarayonlarining sifatini oshiradi va pedagogik jamoaning ijtimoiy ahamiyatga molik maqsadlarga erishishida asosiy omil bo'ladi.

Dissertatsiyaning **“Strukturaviy boshqaruv asosida maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlash bo'yicha tajriba-sinov ishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlashda strukturaviy boshqaruvning imkoniyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlari mazmuni aniqlashtirilgan hamda tajriba-sinov ishlarining natijalari keltirilgan. Pedagogik tajriba-sinov ishlari 2021-2024-yillar mobaynida uch bosqichda olib borildi. Ta'kidlovchi, rivojlantiruvchi va yakuniy bosqichni o'z ichiga oldi.

Tajriba-sinov ishida MTT rahbar-xodimlarlarining ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlashda strukturaviy boshqaruv imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishini tadqiq etish maqsadida Namangan va Farg'ona MTT rahbar-xodimlari, MTT direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tinglovchi rahbarlaridan jami 310- nafar respondentlar jalb etildi.

MTT rahbar-xodimlarining strukturaviy boshqarishda ta'lim sifati va innovatsiyalarni joriy etishga tizimli yondashuvi, ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion ta'lim metodlarini joriy qilish, MTTlarda ta'lim sifatini baholash va monitoring qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo'llashga e'tibor qaratildi.

MTT rahbar-xodimlarilarining strukturaviy boshqaruvga oid ko'nikma va malakalarini aniqlashga doir anketa so'rovnomalari olindi. Shuningdek, qonunchilik va ma'muriy boshqaruv bo'yicha huquqshunos va mutaxassislar bilan “MTT faoliyatiga tegishli qonunchilik asoslari”, “Ish hujjatlarini to'g'ri yuritish”, “Inspeksiya va audit jarayonlariga tayyorgarlik” mavzularida davra suhbatlari tashkil etildi. Strukturaviy boshqaruv jarayoni ishtirokchilari sifatida MTT rahbar xodimlarining hamkorlikdagi faoliyatlari “Jamoani o'rganish dasturi” asosida o'rganildi.

“Pedagogik Kengash” va “Kuzatuv Kengashi”da maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlashda strukturaviy boshqaruvga oid masalalar

loyihasi ishlab chiqildi. MTT direktorlari uchun strukturaviy boshqaruvga oid bir qator tavsiyalar berildi.

Tadqiqot jarayonida MTT rahbarlari bilan strukturaviy boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida malaka oshirish kurslari va mustaqil o'z ustida ishlash jarayonida quyidagi ta'lim shakllariga e'tibor qaratildi:

- **Interaktiv treninglar:** amaliyotga yo'naltirilgan mashg'ulotlar, simulyatsiya va keyslar orqali ko'nikmalarni rivojlantirish.

- **Mahorat darslari:** professional trener va ekspertlardan o'rganish.

- **Muloqot va tajriba almashish seminarlari:** boshqa MTT rahbarlari bilan fikr almashish.

- **Onlayn kurslar va vebinarlar:** masofadan ta'lim olish imkoniyati.

Ushbu tadbirlar orqali rahbarlar nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, balki MTTda ta'lim samaradorligini ham yuksaltirish imkoniyatlari oshirildi.

